Shuningdek, sun'iy intellekt konsepsiyasi ham raqamli transformatsiya bilan bog'liq muhim tushuncha sifatida aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, muqobil energetika, sun'iy intellekt, yashil energetika, taraqqiyot, rivojlanish.

Abstract: This article explores the specific features of green economy and digitalization as key drivers of economic development. Both the digital and green economies are identified as fundamental factors for achieving sustainable development.

In the context of sustainable development trends, digitalization is presented as an innovative tool to enhance the efficiency of natural resource use and to improve the quality of environmental management.

Additionally, the concept of artificial intelligence is reflected as a vital element linked to digital transformation.

Key words: green economy, digital economy, alternative energy, artificial intelligence, green energy, progress, development.

Аннотация: В данной статье освещены особенности зеленой экономики и цифровизации как основных факторов развития экономики. Цифровая и зеленая экономика рассматриваются как ключевые элементы устойчивого развития.

В контексте устойчивого развития цифровизация представляется как инновационный инструмент для повышения эффективности использования природных ресурсов и улучшения качества природопользования.

Кроме того, в статье затронуто понятие искусственного интеллекта как важного компонента цифровой трансформации.

Ключевые слова: зеленая экономика, цифровая экономика, альтернативная энергетика, искусственный интеллект, зеленая энергия, прогресс, развитие.

KIRISH

"Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (P4G) ikkinchi xalqaro sammiti 2021-yil 30-may kuni Janubiy Koreya Respublikasida bo'lib o'tdi. Mazkur nufuzli anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z nutqida quyidagilarni ta'kidladi:

"Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning



havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda yashil taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q."

Mazkur chiqishdan anglashiladiki, global iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar va tabiat resurslaridan foydalanishdagi muvozanatsizliklar dunyo hamjamiyatini yangi, barqaror yechimlar izlashga undamoqda. Ayniqsa, "yashil iqtisodiyot" va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi barqaror taraqqiyotga erishishda asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda[1].

Bugungi kunda Respublikamizda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish hamda uni iqtisodiyotning barcha jabhalarida keng qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda xorijiy rivojlangan mamlakatlar bilan ilmiy va texnologik hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, mamlakatimizda sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Hukumat tomonidan bu sohaga alohida e'tibor qaratilib, iqtisodiy hamda ijtimoiy tarmoqlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va texnologik infratuzilmani kengaytirish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Xususan, ushbu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur hujjat sun'iy intellekt sohasini milliy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda[2].

2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Iqlim bo'yicha Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilgan va ushbu xalqaro hujjatni amalga oshirish doirasida milliy miqyosda belgilangan ulush sifatida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot (YalM) birligiga to'g'ri keladigan parnik gazlari chiqarilishini 2010-yil darajasidan 10 foizga kamaytirish bo'yicha miqdoriy majburiyatni o'z zimmasiga olgan.

Mazkur majburiyatni amalga oshirish maqsadida mamlakatda o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilanmoqda: iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish hamda Orolbo'yi hududidagi ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish. Bu yo'nalishlar strategik va tarmoq dasturlari, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar orqali izchil tarzda amalga oshirilmoqda.

Global miqyosda atrof-muhitning holati va ifloslanish darajasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar deyarli barcha tabiiy resurslarning jiddiy antropogen bosim ostida ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday ekologik va iqtisodiy muammolar esa iqtisodiyotning yashillashtirilishini, ya'ni ekologik barqarorlikka asoslangan modelga o'tishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, hozirgi kunda dunyo aholisining katta qismi shaharlarda istiqomat qiladi. Aholi sonining ortib borishi qator jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, transport tirbandliklari, boshqaruv va xizmat ko'rsatish tizimlarining haddan tashqari yuklanishi, energiya va boshqa resurslar iste'molining keskin oshishi, hamda ekologik vaziyatning yomonlashuvi kabi holatlar kuzatilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda tashkilotlar raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt vositalaridan keng foydalanishga harakat qilmoqda. Shu asosda dunyo bo'ylab tobora ko'payib borayotgan yirik aholi punktlari "aqlli uy" va "aqlli shahar" konsepsiyalariga mos ravishda rivojlanmoqda.

Natijada, yashil iqtisodiyotdan yashil raqamli iqtisodiyotga o'tish ehtiyoji paydo bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning afzalliklarini chuqur tahlil qilish va ularni iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga tatbiq etish zarurati bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Maqolada kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, iqtisodchi olimlarning qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir xulosalar tahlil qilinib fikr mulohaza yuritildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirda raqamlashtirish O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Shu maqsadda hukumat tomonidan "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda, bu dastur birinchi navbatda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan[3]. Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari bo'yicha bir qancha xorij olimlari ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Rus olimlaridan Stefanova N.A. raqamli iqtisodiyot samaradorligini baholash mumkin



bo'lgan asosiy mezonlarni ko'rib chiqqan va ularning zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini ko'rsatib bergan. Kox L.V. esa Raqamli iqtisodiyotni o'lchash usullari, shuningdek, raqamlashtirilgan iqtisodiyot faoliyatining ayrim turlarini o'lchash imkoniyatlarini ko'rsatib bergan. O'zbek olimlari xam bu soxada o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Jumladan, akad. Gulyamov S.S. xabarligida raqamli iqtisodiyot bo'yicha izohli lug'at ishlab chiqilgan, bir qancha o'quv qo'llanmalar, sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha darslik tayyorlangan. Bu adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ulardan turli soxalarda foydalanish masalalari batafsil yoritib berilgan[4].

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Toshmatov Sh.A. Jahonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish modellari va uni O'zbekistonda amalga oshirish xususiyatlariga (2020) [5], Shodmonov Sh.Sh., Abdullayeva M.K. Sanoat korxonalarida energiya sarfini kamaytirishning asosiy jihatlari (2019) [6], Yangi O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni A.E.Imamov, E.Z.Imamov, X.N.Karimov (2022)[7], Tiklanadigan energiya iste'molining holati va rivojlanish istiqbollari Z.F.Faxriddinova, X.X.Rejapov (2022), [10] Jahonda "yashil" iqtisodiyotning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning hozirgi holati tahlili va rivojlanish tendensiyalarini D.Odinayev (2018),[7] O'zbekistonda muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga Sh.S.Xakimova (2022), [11]Tejamkorlik – Energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlariga A.H.Yusupov (2022), Sanoat elektr ta'minoti tizimlarida elektr energiyasini iqtisod qilishga M.M. Nuryog'diyev, S. Mutallibjonov (2022) va boshqalar zamonaviy muqobil energiya tatbiq etish va energiyadan samarali foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida QTedan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, ularni sanoatda keng qo'llashga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish borasida L.A.Fedoskina, Ye.I.Abramov Energiyani boshqarish tizimini shakllantirish asosida sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirishni (2022), Energiya iste'molini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishi sifatida muqobil energiya manbalaridan foydalanishni I.G.Salimyanova, M.G.Treyman (2016), Sanoat korxonalarida muqobil energiyaga bo'lgan talab va iste'molni muvofiqlashtirish muammosini G.N.Ryazanova (2016), Qayta tiklanadigan energiya manbalarini sanoat korxonasining elektr ta'minoti tizimiga integratsiyalashni S.V.Podkovalnikov, M.A.Polomoshinalar (2023) tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida QTedan ijtimoiy obyektlarda samarali foydalanish, "yashil" energiya tizimga moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish va sanoat korxonalarida QTE manbalaridan foydalanish yo'llari va usullari bo'yicha nazariy va uslubiy takliflar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ijobiy tomonlari:

ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi hisobiga mehnat unumdorligining o'sishi;
yangi yashil ish o'rinlari yaratilishi, shuningdek frilansning rivojlanishi;
kompaniyalar raqobatbardoshligining ortishi uchun imkoniyatlar yaratilishivashuningdek ekologik mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi;
qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikning bartaraf qilinishi.

Demak, yashil iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarni qo'llash mohiyat, barqaror rivojlanish texnologiyalarni yaratilishiga olib keladi. XXI asr boshida Birlashgan Millatlar Tashkiloti insoniyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari o'zaro bog'liq bo'lgan 17 ta global maqsadlarni ilgari surdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan qo'llab-quvvatlangan Oksford universitetining Global tiklanish observatoriyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotiga ko'ra, qayta tiklash uchun umumiy xarajatlarning 20 % dan kamrog'i atrof-muhit muammolariga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 2-dekabrda "2030yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonqarori qabul qilindi. 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan:

- Issiqxona gazlari ajratmalarini 2010-yilgi darajadan 35 % ga qisqartirish;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga yetkazish va ularning ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiy hajmida 30 % dan ortiq darajaga ko'tarish;
- Sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 % ga oshirish;
- Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hisobiga 30 % ga kamaytirish;
- Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish va 1 million gektar maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish;
- Har yili 200 million dona ko'chat ekish va ularning umumiy sonini 1 milliard donadan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 % dan ortiq darajada kengaytirish;



- Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 % dan oshirish.

Jumladan, butun dunyoda yashil iqtisodiyot samaradorligini baholovchi yashil iqtisodiyotning Global indeksi va Yashil o'sish indeksi kabi xalqaro reyting ko'rsatkichlaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu indeks to'rtta o'lchov toifalari bo'yicha baholanadi: 1) boshqarish va iqlim o'zgarishi; 2) samaradorlik sektorlari; 3) bozor va investitsiyalar; 4) atrof-muhit. Yashil o'sish indeksiga ko'ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlarda yashil o'sish ko'rsatkichlari eng yuqori xisoblanadi. O'zbekiston esa Osiyo davlatlari orasida 33-o'rinni egallab turibdi.

Sun'iy intellekt tizimlari ekologik muammolarni hal qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, global isishda issiqxona gazlari katta rol o'ynaydi, ularning aksariyati qazib olinadigan yoqilg'ilarning yonishi natijasida hosil bo'ladi. Sun'iy intellekt ushbu ta'sirni quyidagi imkoniyatlar orqali kamaytirishi mumkin, jumladan:

Quyosh va shamol kabi ekologik toza manbalardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan elektr energiyasi ulushini oshirish. Hozirgacha ushbu manbalarining ob-havoga bog'liqligi ulardan foydalanish samaradorligini pasaytirmoqda. SI texnologiyalaridan foydalanish quyosh va shamol elektr stansiyalaridan energiya ishlab chiqarishni bashorat qilish imkonini beradi. Sun'iy intellekt ularning energiya tizimlariga integratsiyalashuvini kamaytiradi, bu esa ancha uzoq vaqt davomida (1 yilgacha) optimal quvvat balansini yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu imkoniyatlar tufayli shamol va quyosh energiyasidan olinadigan elektr energiyaning tannarxi arzonlashadi.

Yoqilg'i elektr stansiyalarining ishlashini optimallashtirish. Xususan, elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan, shuningdek, yoqilg'ining yonish chastotasini kamaytiradigan va elektr stansiyalarining ishlashini optimallashtiradigan echimlar allaqachon mavjud. "Aqlli elektr stansiyasi" loyihasi aqlli energiya tizimiga aylanayotgan kelajak energiya tizimining muhim elementi sifatida tan olingan.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish joyidan iste'molchilarga tashishda yo'qotishlarni kamaytirish. Mamlakatlarning energetika strategiyasi allaqachon aqlli tarmoqlardan foydalanish elementlarini o'z ichiga olgan, xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida magistrallik elektr tarmoqlarini rivojlantirish jarayoni boshlangan;

Binolar va ko'chalarni yoritish va isitishni nazorat qilish orqali energiya sarfini kamaytirish, shuningdek, loyihalash bosqichlari asosida binolarda energiya samaradorligini optimallashtirish. Tarmoq kompaniyalarida aqlli o'lchash tizimlari va aqlli podstansiyalar kabi aqlli shahar elementlaridan foydalanilmoqda.

1-jadval: 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar.

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2024-yil	2026-yil	2028-yil	2030-yil
1	Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya hajmini kamaytirish (2021-yilga nisbatan)	%	14,0	22,0	27,0	30,0
2	Sanoatda elektr energiyasi iste'moli, umumiy iste'moldagi ulushi	%	25,0	23,0	21,0	20,0
3	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish (gidroenergetika bilan birga)	% Kvt/s	9,0 8,6	24,3 25,0	29,0 34,0	30,5 40,7
4	Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	MVt	150,0	400,0	800,0	1500,0
5	Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholi soniga nisbatan	%	80,93	87,12	88,5	90,0
6	O'rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zaxiralarini ko'paytirish	Mln.m ³	68,1	77,0	85,5	92,3
7	"Yashil makon" loyihasi doirasida shaharlardagi "yashil" maydonlarni kengaytirish (aholi punktining umumiy maydoniga nisbatan)	%	12,4	15,8	23,8	30,0
8	Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi	%	40,0	50,0	60,0	65,0

Sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash konsepsiyasi tasdiqlandi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining amaldagi rivojlanish modeli doirasida iqtisodiy o'sish chegaralarini yengib o'tish, shuningdek, iqlim va ekologik barqarorlik masalalariga tobora ko'proq e'tibor qaratayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo'lida noyob imkoniyatlarga ega ekanini chuqur anglamoqda. Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayanib, past uglerodli va iqlimga chidamli "yashil" o'sish modeliga o'tish yo'lida izchil harakatlarni amalga oshirmoqda. Bu model Moslashuvchan, Inklyuziv, Barqaror va Samarador (MIBS) tamoyillarga asoslanib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan birga yangi iqtisodiy imkoniyatlar, ish o'rinlari va ekologik xavfsizlikni yaratishni nazarda tutadi.

Biroq, yanada barqaror va "yashil" iqtisodiyotga to'liq o'tish uchun O'zbekiston mavjud ekologik muammolar hamda iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa xavf omillarini bartaraf etish yo'lida chuqur va tizimli ishlarga ehtiyoj sezmoqda.

Shu munosabat bilan, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Axborot xabardorligini oshirish – Aholini atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari, ekologik muammolar va ularning oqibatlarini haqida keng miqyosda xabardor qilishga qaratilgan loyiha va dasturlarga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Davlat boshqaruvi sifatini oshirish – Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, institutsional va tashkiliy jihatlarini takomillashtirish zarur.

"Yashil" davlat xaridlari siyosatini rivojlantirish – Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish orqali davlat xaridlari tizimini ekologik standartlarga moslashtirish lozim.

Energiya salohiyatini oshirish – Milliy iqtisodiyotda "yashil" texnologiyalardan samarali foydalanishni kuchaytirish va ularni energetika, sanoat, transport kabi sohalarda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil infratuzilmani moliyalashtirish – Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida "yashil" infratuzilmaga yo'naltiriladigan davlat investitsiyalari hajmini oshirish, ekologik innovatsiyalarga soliq va kredit imtiyozlarini joriy etish kerak.

Barqaror rivojlanish – bu jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli bo'lib, unga bosqichma-bosqich o'tish yashil iqtisodiyotga asoslangan yangi texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt – bu muammolarni hal etishga qaratilgan ilg'or texnologik soha bo'lib, an'anaviy intellektual yondashuvlar o'rniga innovatsion algoritmlar va maxsus hisoblash arxitekturasiga asosida qaror qabul qilishda keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, suv xo'jaligida "Smart Water" kabi aqlli texnologiyalarni joriy etish orqali sug'orish tizimlarini optimallashtirish, suvdan foydalanish va iste'molni nazorat qilish, suv tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash va rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish, davlat-xususiy sherikchilik asosida boshqaruvni avtomatlashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Ushbu takliflar O'zbekistonda yashil va raqamli iqtisodiyotni uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va innovatsion taraqqiyotga erishish yo'lida muhim amaliy yo'nalishlar bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori.
4. Gulyamov S.S. (i.f.d., O'zR FA akademigi), Muxiddinova M.X. (PhD), Turg'unov O.U. (tayanch doktorant). – Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti.
5. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A. Jahonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish modellari va uni O'zbekistonda amalga oshirish xususiyatlari: Monografiya. / I.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida – Toshkent: "Universitet", 2020. – 278 b.
6. Shodmonov Sh.Sh., Abdullayeva M.K. Sanoat korxonalarida energiya sarfini kamaytirishning asosiy jihatlari (2019). Manba: <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/587>
7. Odinayev D.Sh. Jahonda "yashil" iqtisodiyotning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning hozirgi holati tahlili va rivojlanish tendensiyalari. // *Ekonomika i finansi (Uzbekistan)*. – 2018. – №7.
8. Imamov A.E., Imamov E.Z., Karimov X.N. Yangi O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bilan bog'liq muammolar. // *SAI*. – 2022. – №A3.
9. Nuryog'diyev M.M., Mutallibjonov S. Sanoat elektr ta'minoti tizimlarida elektr energiyasini iqtisod qilish. // *Scientific Progress*. – 2022. – №4.
10. Faxriddinova F.Z., Rejapov X. Tiklanadigan energiya iste'molining holati va rivojlanish istiqbollari. // *Science and Education*. – 2022. – №7.



11. Xakimova Sh.S. O'zbekistonda muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarga doir. // Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya. – 2022. – T. 1. – №7. – B. 24–27.
12. Yusupov A.H. Tejamkorlik – Energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishidir. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. – 1/2022, yanvar–fevral, №00057. – B. 182–188.
13. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot taraqqiyot garovi. // Biznes-Ekspert. – 2022. – №3.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>